

**BOLALAR VA O'SMIRLARDA AUTIZM SPEKTR BUZILISHLARI:
TASHXIS VA IJTIMOY MOSLASHUV MUOMMOLARI**

Temurova Farizabonu Akmaljon qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Pediatric fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda autizmli o'smirlar ,ayniqsa, ijtimoiy moslashuv, tengdoshlari bilan munosabat o'rnatish, mustaqil hayotga tayyorlanishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu boisdan ularni erta bosqichda aniqlash, individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tezisda autizmning asosiy belgilari, tashxis usullari, pedagogik va psixologik yondashuvlar, shuningdek, O'zbekistonda bu sohadagi mavjud holatlar va ularning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalir so'zlar: Bolalar, tashxis, erta aralashuv, psixik yordam, ijtimoiy yondashuv.

Autizm spektiri buzilishi- bu bolada rivojlanishning nevrologik buzilishi bo'lib, u ijtimoiy muloqot, til, xatti-xarakatlar va hissiy idrokda turli darajadagi o'zgarishlar bilan ifodalaniladi. Autizm erta bolalik davrida namoyon bo'ladi va 2-3 yoshgacha bo'lgan davrda erta tashxis qo'yish va rivojlantiruvchi terapiyani boshlash katta ahamiyatga ega. Tashxis qo'yishda AQSh qabul qilingan DSM-5 (Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, 5-nashri) diagnostik mezonlari va ADOS (Autism Diagnostic Observation Schedule), Cars (Childhood Autism Rating Scale) bilan aniqlaniladi. Biroq, O'zbekiston sharoitida autizmga tashxis qo'yish vositalari va mutaxassislar yetishmovchiligi, otalarning bu boradagi bilimlarining pastligi, autizm bilan yashayotgan bolalar uchun maktablar va ijtimoiy muassasalar sonining kamligi bilan bu muammo chuqurlashmoqda.

Autizmga ega bolalarda takrorlanuvchi harakatlar, o'z-o'ziga qaratilgan xatti-xarakatlar, boshqalar bilan ko'zga-ko'z qaray olmaslik, nutqning kechikishi yoki umuman bo'lmasligi kabi belgilar kuzatiladi. Autizmga ega bolalar va o'smirlarni davolashda erta tashxis va terapiya (nutq terapiyasi) bolaning rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta (2-3) yoshlarda boshlangan aralashuvlar bola kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta samara beradi. O'smirlar uchu maxsus moslashtirilgan maktablar, ta'lim muassasalari, maxsus dasturlar, va psixologik yordam bu bosqichda juda muhimdir.

O'zbekistonda autizmga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun “Imkon”, “Umidvor bolalar” kabi muassasalar tashkil qilinmoqda. Ammo ko'pchilik holatlarda tashxis kechiktirilishi, otalarning bolasi autizmga chalinganligini tan olmasligi, masus terapiya va psixologik yordam berolmasligi tufayli ko'p bolalarda bu kasallik belgilari kuchayib bormoqda.

Xulosa: Autizm nevrologik kasallik bo'lib ,hozirda ko'pchilik bolalar va o'smirlar o'rtasida ko'paymoqda. Bunga sabab otalarning o'z bolalari bilan vaqt o'tkazmayotganlari, bolalarning internet tarmoqlarida ko'p vaqt davomida “qisqa dofaminga” ega bo'lgan video va reelslarni kurishi, turli psixik travmalar olishi natijasida bu ko'rsatkich kummdan-kunga ortmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5®). American Psychiatric Publishing, 2013.
2. Lord, C., Elsabbagh, M., Baird, G., Veenstra-VanderWeele, J. Autism spectrum disorder. The Lancet, 392(10146), 508–520, 2018.
3. Dawson, G., Rogers, S., Munson, J., et al. Randomized, controlled trial of an intervention for toddlers with autism: The Early Start Denver Model. Pediatrics, 125(1), e17–e23, 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent, 2022.
5. Autism Speaks. (www.autismspeaks.org) – Autizm haqida ilmiy va amaliy resurslar portali.

Global
Science
Publication